

### MAROQLI BIR BAYTDA SHOIR SAN’ATKORLIGI

**Vahob Rahmon,**

*Guliston davlat universiteti dotsenti*

**Erkin Rahmonov,**

*Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi*

Mumtoz adabiyot kitobxonligi XIV-XIX asrlarda qanaqa edi-yu, hozir qanaqa? – deb savol qo‘yadigan bo‘lsa, “ozgina” farqlariga ishora qilishga to‘g‘ri keladi. Navoiy davridan Furqat zamonigacha amal qilgan navoiyxonlik, mashrabxonlik, bedilxonliklarda kitobxon diqqati avvalo harfga qaratilgan. Buning isbotini “Hayratul-abror”ning dastlabki boblaridan aniq kuzatish mumkin. Shuning uchun u paytlarda yetti yoshdan yetmish yoshgacha odamlar muammo aytish va uni yechish bilan shug‘ullangan. Natijada ishtiyoq, musahhaf, qalb, muvashshah, istixroj, kitobat kabi harfiy badiiy san’atlar turkumi faol muhokamada bo‘lgan. So‘ngra so‘zga asosiy diqqat qaratilgan. So‘z ko‘pma‘noliligi haqida iyhom, lutf, tajnis, ittifoq, jazolat, salosat, husni matla’, zulvajhayn, muxtamiluz-ziddayn, tamsil, tanosub, irsoli masal, ta’bir singari o‘nlab, va so‘z takrorlari xususida takrir, mukarrar, qaytariq, tasbe, tasdir, hashv, tardi aks, tashtir, iltizom, aks, tarse’, tadrij, tashobehul-atrof, hojib kabi yuzdan (!) ortiq badiiy san’atlar kashf etilgan. Obrazlilik yaratuvchi badiiy san’atlar: tashbeh, istiora, laf va nashr, talmeh, tashxis singari o‘nlab, ta’sirchanlik yaratuvchi unsurlardan ham tafre’, ruju’, tajohuli orifona, istifhom, husni ta’lil, mubolag‘a, nido singari o‘nlab san’atlar o‘rganilgan.

O‘sha davrlardagi kitobxonlikda har bir baytdagi yuqorida qayd etilgan badiiy san’atlar bayt va misradan bittalab topilgan va ularni qo‘llash mahoratiga baho berilgan.

Biz, sovet davri va yangi zamon odamlari she’rdagi mavzu, g‘oya, voqea va ta’sirchanlikka ahamiyat berishga moyilmiz...

Hozir kitobxon kitob deganda, inson erotikasini qitiqlaydigan, asosiy ehtiyojinigina qondiradigan va hayotiy fojia-yu hangomalar ifodasini tushunishadi, desak, lof qilmasmiz.

Shuning uchun telefon saltanati bu ehtiyoji uchun eng mos qomusdir. Natijada bugun mumtoz adabiyot o‘qilmayapti, degan achinarli gap uchun ranjimang.

Biroq, taraqqiyotda haqiqiy aql egalari haqiqatga – asl badiiyatli bilim olishga qaytmoqdalar. Rossiyadagi “Institut mozga” (Miya instituti) direktorining bir necha suhbatlarini eshitdik.

U kishining qarashlariga ko‘ra, maktabda bir minutda falon miqdorda so‘z o‘qiy olish metodikasi inson bolasini farosatsiz qilish uchun o‘ylab chiqarilgan; biz

teskarisini qilishimiz kerak. Bolani rosa sust o‘qitishga, uning diqqatini har bir so‘zga qaratishimiz kerak. So‘z qudratini bilgan odam aqlli bo‘ladi va so‘z sehriga berila oladi. So‘zning ko‘pma‘noliligi, hidi, rangi, ta‘sir kuchi, yoshi qamrovini tushunmaydigan hozirgi kitobxonlarga rahmingiz kelsin!...

Lev Tolstoy “Adib bir so‘z lug‘aviy ma‘nosini bilmay o‘z asarida o‘rinsiz qo‘llasa, men podshoh bo‘lsaydim, o‘sha yozuvchini yozish huquqidan mahrum etib, qirq darra urdirardim”, deb bejiz qayg‘urmagan.

Mumtoz adabiyotshunoslarimiz odatda mashhur aforizmlar darajasidagi baytlarni:

(Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami)

va shoxbaytlarga yaqinlarini tahlil va targ‘ib qilishga moyildirlar.

Holbuki, yuzaki qaraganda jo‘nroq, jaydari tuyuladigan Navoiy baytlariga adabiyotshunos diqqat e‘tibori bilan qarasangiz: “Ie, bu shoxbayt ekan-ku?!” degan xulosaga kelsangiz, ajab emas.

Quyida, shunday bir baytning zoxiriy mazmuni va badiiy bo‘yoqdorligini kuzatishga urinib ko‘ramiz. Alisher Navoiyning “Xazoyinul-maoniy” devonlaridan “Navodirush-shabob”ning 367-g‘azalining matla‘i:

Mening ko‘nglimni ishq, ul gul yuzin mul,  
Bu qildi dog‘-dog‘, ul qildi gul-gul.

Bosh baytni o‘qiymiz-u: “Ie, mazmunini tushuna olmadikmi?”, deya yana bir karra o‘qiymiz. Birdan: “Ha, bunda Hazrat taqsim san‘ati bilan o‘quvchini sinabdilar-ku”, degan hayolda, bayt mazmunini qog‘ozga tushirmoqchi bo‘ldik. Taqsim san‘ati shundayki, shoir misra ikki narsaga hos ikki tushunchani yonma-yon keltirmaydi-da, ikkinchi misrada ularga tegishli xususiyatlarni “bu, u” olmoshlarida ifodalaydi. Kitobxon o‘z aqlini ishlatib “Taqsimlay bilmog‘i” talab etiladi. Baytga boqaylik:

- Ishq ko‘ngilni nima qiladi? Kuydiradi, dog‘ (chandi qoldiradi).

- Mul (may) yuzga qanday ta‘sir qiladi? May qizdirib yuzni qizartiradi. Demak, baytdagi aloqador so‘zlarni “o‘z” tegishli joylariga qo‘yib chiqamiz:

Mening ko‘nglimni ishq qildi dog‘-dog‘  
Gul yuzin mul qildi gulgul.

Endi so‘zlarni gap xolida joylashtiramiz.

Ishq ko‘nglimni dog‘-dog‘ qildi.

Mul (may) gulday (sevgilim) yuzini gulgul qildi.

Biz taqsimotni to‘g‘ri bajarish uchun laf va nashr san‘atidan foydalandik. Laf va nashrni qo‘llagan shoir: birinchi misrada bir necha narsa-predmetlarni tizadi-da, ikkinchi misrada shularning har biriga bittadan o‘xshatish keltiradi yoki o‘sha narsa-

predmetlar ta’siri – mahsulini keltiradi: birinchi misrada ishq va mul keltirildi. Ikkinchi misrada ularning mahsuli dog‘-dog‘ qilgan va gulgul etgani aytili.

Birinchi misrada mul (may) nimani gulgul qildi? Gul yuzini. Sezilyabdi-ki, gul may ichmaydi. Gul – qiz ekan. Demak, gul so‘zida shoir gulday qizni gul demoqda, ya’ni istiora san’atini qo‘llamoqda.

Dog‘-dog‘ so‘zlari bir so‘zning chiziqcha orqali juft takrori bo‘lgani uchun bu so‘zda mukarrar san’ati qo‘llanilgan.

Ikkinchi misradagi “Qildi” so‘zining takrori takrir san’ati namunasidir.

“Ko‘ngil” va “Ishq” so‘zlariga kelsak, ishq ko‘ngil xossasi bo‘lgani uchun tanosubdir. “Ko‘ngil”, “Yuz”, “Men”ga aloqador bo‘lgani uchun tanosub san’ati zuxr etgan. “Gulgul” so‘ziing o‘zida “Gulday” ma’nosi bor-ki, bu yuzga nisbatan olinmoqda: tashbex san’ati sezilmoqda.

Mana bir baytdan beshta ma’naviy (taqsim, istiora, tashbex, laf va nashr, tanosub) va ikkita lafziy san’ati (mukarrar va takrir)ni belgiladik. Baytda she’r san’atlari ko‘p qo‘llanilgani uchun bu baytni masnu’, shohbayt va husni matla’ deb atashimiz ham mumkin.

Sezayabsizki, biz bu baytning o‘quvchiga ta’siri, ma’rifiy va estetik mohiyati haqida so‘z yuritmadik. Faqat baytdan badiiy san’atlarni aniqlab chiqdik, xolos. Bundan so‘ng, bayt haqida istagancha mulohaza yuritish mumkin.